

Qorovulbozor tuman

Axborot – kutubxona markazi

Axborot – bibliografiya xizmati



Said Ahmad ijodining ma'naviy – ma'rifiy ahamiyati

(S. Ahmad tavalludining 106 yilligiga)

Bibliografik qo'llanma

Qorovulbozor - 2026



1920-yilning 10-iyunida Toshkent shaxrining Samarqand darvoza maxallasida tug‘ilgan. Uning bolaligi Elbek, Oybek, G‘afur G‘ulom singari adiblar davrasida o‘tdi. Tabiatan qiziquvchan, tinib-tinchimas Said Axmad adabiyotga kirib kelguncha juda ko‘p soxalarda o‘zini sinab ko‘rdi: agitplakatlar yozdi, artist bo‘lishga urinib ko‘rdi, doktorlik maktabida o‘qidi, qurilish texnikumida taxsil oldi, rassomlik maktabiga qatnadi, mashxur fotochi Pensonga shogird tushdi, gazetalarga xabarlar yozdi. U Nizomiy nomidagi pedinstitutda bir muddat o‘qigach, 1941-yilda „Mushtum“ jurnalida ishladi. 1942-1943-yillarda respublika radiosida, 1943-1947-yillarda „Qizil O‘zbekiston“ gazetasida, 1948-1950-yillarda „Sharq yulduzi“ jurnalida mexnat qildi. 50-yillar boshida millatchi sifatida bir necha yil qamalib xam chiqdi. Milliy istiqlol yo‘lidagi xizmatlari uchun Said Axmad 1999-yilda O‘zbekiston Qaxramoni unvoniga sazovor bo‘lgan. Adib „O‘zbekiston xalq yozuvchisi“ unvoniga, Davlat mukofotiga sazovor bo‘lgan, „Buyuk xizmatlari uchun“, „Do‘stlik“ ordenlari bilan mukofotlangan. Said Axmad xikoyanavis sifatida tanilgan. Uning „Cho‘l burguti“, „Lochin“, „Bo‘ston“, „To‘yboshi“, „Jimjitlik“, „Turnalar“, „Xayqiriq“, „Alla“, „Muxabbatning tug‘ilishi“, „Qorako‘z Majnun“ singari o‘nlab xikoyalarida sadoqat, mexr, odamgarchilik, ishonch, e‘tiqod singari ma‘naviy qadriyatlar ta‘sirchan aks ettirilgan. Adib xikoyalarida inson ruxiyati tovlanishlarini ko‘rsatishga katta e‘tibor berganligi uchun xam bitganlari zavq bilan o‘qiladi va u prozaning shoiri xisoblanadi. Yozuvchi xajviy xikoyalar yaratish bo‘yicha Qaxxor an‘analarini davom ettirgan ijodkordir. Uning „Sobiq“, „Qoplon“, „O‘rik domla“, „Mening do‘stim Babbaev“, „Muzei“, „Bo‘ri ovi“, „Xandon pista“ kabi ko‘plab xajviyalarida inson tabiatidagi qusurlar badiiy tatqiq etiladi. Said Axmad xajviy so‘z jilolarini nozik payqaydi va undan moxirona foydalanadi. Uning qishloq mavzusidagi „Qadrdon dalalar“ (1949), „Xukm“ (1958) qissalari, chalkash insoniy taqdirlar maxorat bilan aks ettirilgan „Qirq besh kun“, „Xijron kunlari“ (1964), „Ufq bo‘zag‘asida“ (1969) romanlaridan iborat „Ufq“ trilogiyasi, inson qismati turg‘unlik davri qaboxatlari fonida tasvirlangan „Jimjitlik“ (1988) romani, Bolalar xayoti ifodalangan „Sherzod va Gulshod“ (1945), dunyoning yetti burchiga yoyilgan „Kelinlar qo‘zg‘oloni“ (1976), yolg‘iz mo‘ysafidning ruxiy iztiroblari aks ettirilgan „Kuyov“ (1986) singari saxna asarlari adibning katta ijodiy maxoratlaridan dalolatdir. Onasi Zulfiyaxon savodli va xusnixati chiroyli ayol edi. U Fuzuliy, Xuvaydo va Mashrab g‘azallarini o‘qirdilar.

Muallif aytishicha, otasi mashxur pedagog va olim Ismoilbek Gasprinskiy bilan yaqin do‘st bo‘lgan. Xusanxo‘ja Dadaxo‘ja o‘g‘li rus tilini juda mukammal bilgan. U

shoir Elbek bilan Chimyonda tanishib qolgan va Toshkentda boshpanasiz iynalayotganini ko'rib, tashqi xovlisiga ko'chirib kelgan. 1938 yilning erta baxorida Xusanxo'jani NKVD xodimlari xibsga oladi. Shundan keyin muallif otasini ko'rmagan. 22 yil o'tgandan keyin otasi tergovda qazo qilganini bilgan. Said Axmadning birinchi xikoyalar to'plami — "Tortiq" (1940). "Er yurak" (1942), "Farg'ona xikoyalari" (1948), "Cho'l burguti" (1960), "Cho'l oqshomlari", "Odam va bo'ron" to'plamlariga kirgan xikoyalarda zamondoshlarining murakkab taqdiri, ruxiy kechinmalari extiros bilan aks ettirilgan. Said Axmad o'z xikoyalarda Oybekning psixologik tasvir ma'orati, G'afur G'ulomning yumori, Abdulla Qaxxor bayonidagi lakonizmdan o'rganishga intilgan va ular ijodi Said Axmadning yozuvchi bo'lib yetishishida „darslik“ vazifasini o'tagan. Ayni paytda u xayvchi , yumorist sifatida tanilgan. Ijodining kattagina qismi xayviy-yumoristik xikoyalar, qissalar, komediyalardan iborat. Romanlarida xam yumoristik yo'nalish muxim o'rin tutadi. Uning yumoristik ma'orati "Kelinlar qo'zg'oloni" (1976), "Kuyov" (1986) komediyalarida yorqin namoyon bo'lgan. „Kelinlar qo'zg'oloni“dagi xalqona yumor bilan yo'g'rilgan Farmonbibi millat mentalitetini, o'zligini, kuchli va ojiz jixatlarini o'zida mujassamlashtirgan betakror obraz darajasiga ko'tarilgan.

Istiqlol yillarida yaratilgan asarlari

Said Axmad istiqlol yillarida xam xayotdagi o'zgarishlar xaqida ko'plab maqola, badialar yozdi, avvalgidek quvnoq yumoristik, jo'shqin lirik xikoyalar yaratdi. "Xandon pista" (1994), "Bir o'pichning baxosi" (1995) xayviy to'plamlari, "Yo'qotganlarim va topganlarim" (1998), "Qorako'z majnun" (2001), "Kiprikda qolgan tong" (2003) kitoblari, 3 jildli „Tanlangan asarlari“ (2000) chop etildi. „Yo'qotganlarim va topganlarim“da G'afur G'ulom, Oybek, Mirtemir, Shayxzoda, Saida Zunnunova va boshqa bir qator zabardast o'zbek yozuvchi va shoirlarining jonli qiyofasini badiiy bo'yoqlarda ifodalab berdi. Istiqlol tufayli odamlar qismati va ruxiyatidagi yemirilishlar xaqida baxs qiluvchi "Qorako'z majnun", "Ot bilan suxbat" "Azroil o'tgan yo'llarda" xikoyalari, qatag'on davri xotiralari bilan bog'liq. "Borsa kelmas darvozasi", "Taqdir, taqdir...", "Oftoboyim" xikoyalari, adibning o'zi yaqindan muloqotda bo'lgan ustoz adiblar, tengdoshlari, shogirdlari va nixoyat, o'z xayot va ijod yo'li xaqidagi xotira esselari mustaqillik davri o'zbek adabiyotida muxim xodisa bo'ldi.

Said Axmadgagina xos nozik kuzatishlar, erkin, asov bir rux, xam xazin, xam nurli, pokiza tuyg'ular, beg'ubor xazil mutoibalar bilan yo'g'rilgan xotira esselar bu janrning zamonaviy o'zbek adabiyotidagi eng yaxshi namunalari qatorida turadi. Feleton janrida xam samarali ijod qilgan. 1947-yil „xalq dushmani“ sifatida xibsga olingan. Stalin vafotidan so'ng oqlangan. „Kelinlar qo'zg'oloni“, „Kuyov“ komediyalari xozirgi O'zbek milliy akademik teatrida, „Kelinlar qo'zg'oloni“ dunyoning ko'plab mamlakatlarida saxnalashtirilgan. „Ufq“ asari asosida dramalar, „O'zbekfilm“ kinostudiyasida "Muxabbat mojarosi" filmi (1970) va boshqalar yaratilgan. "Do'stlik" (1996), "Buyuk xizmatlari uchun" (1997) ordenlari bilan mukofotlangan.

Adabiyotlar


- Normatov U., Sayd Axmad [Adabiy portret], T., 1971;
- Gʻafurov I., Prozaning shoiri, T., 1984.
- Mirvaliev S. Oʻzbek adiblari. -T.: „Yozuvchi“, 2000.
- Karimov N.va boshqalar 20 asr oʻzbek adabiyoti tarixi.-T.: „Oʻqituvchi“, 1999.
- Q. Yoʻldoshev va boshqalar Adabiyot (6-sinf). -T.: „Oʻqituvchi“, 2000.
- Ufq, T., 1976; Saylanma [3 j.li], 1982;
- Tanlangan asarlar [3 j.li], T., 2000;
- Qorakoʻz majnun, T., 2001;
- Kiprikda qolgan tong, T., 2003.

Said Axmad va Saida Zunnunova

Atoqli shoira Saida Zunnunova Said Axmadning rafiqasi boʻlib, ular birgalikda qisqa boʻlsada, ammo sermazmun, baxtli xayot kechirishadi. Buni adibning xotiralarida, shoiraning esa sheʼrlarida payqash qiyin emas. Adibning rafiqasi xaqida yozgan “Shoiraning feruza olami” xotiralari **“Yoʻqotganlarim va topganlarim”** kitobida bor.

1995 yilda Said Axmad “Doʻstlik”, 1990-yilda “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlanadi. “Oʻzbekiston Xalq yozuvchisi”, “Oʻzbekiston Qaxramoni” unvonlariga sazovor boʻladi. Said Axmad 2007-yil 5-dekabrda vafot etadi. Yozuvchi Chigʻatoy qabristoniga dafn etilgan. 2013 yil 10-iyun kuni Toshkent shahridagi Oʻzbekiston Milliy bogʻida Said Axmad xamda Saida Zunnunovalarga xaykallar oʻrnatilgan.






„Ufq“ trilogiyasi

Said Ahmad. Ufq: / Qayta nashrga tayyorlovchi Xusanxodjaeva Nodira Said Ahmad qizi. – T.: “Sano – standart” nashriyoti, 2019. – 632 b.

"Ufq" trilogiyasi (1964-1974) adib ijodida aloxida o‘rin tutadi. „Ufq“ romani XX-asr millat xayotining o‘n yillik davri — Ikkinchi jaxon urushi, urush va urushdan keyingi yillar voqealarini o‘z ichiga oladi. Trilogiyada o‘sha yillari xalq boshiga tushgan musibatlar, odamlar ko‘ksidagi armonlar, shu musibatlarni yengishga qodir mislsiz matonat va shijoatlar yozuvchi iste’dodiga xos ehtiros, o‘ziga xos ilxom bilan aks ettirilgan. Asarda Ikromjon, Jannat, Azizxon, Dildor, Asrora kabi teran, xalqchil, yorqin milliy obrazlar yaratilgan. “Ufq” trilogiyasi tufayli Said Axmad 1978-yili Xamza nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘ladi.



“Jimjitlik” romani

Said, Ahmad. Jimjitlik: / Qayta nashrga tayyorlovchi Xusanxodjayeva Said Ahmad qizi – Toshkent: “Sano - standart” nashriyoti, 2016. – 336 b.


Jimjitlik (1988) romanida sirtidan tinch, sokin ko‘ringan sho‘ro davrining ichki dramalari, tuzum inqirozi butun keskinligi, shiddati bilan ko‘rsatilgan. Asardagi deyarli barcha yetakchi personajlar fojivaviy qismat egalaridir. Roman o‘zining asov, „bebosh“ ifoda tarzi bilan jozibalidir.

“Yo‘qotganlarim va topganlarim”



Said, Ahmad. Yo‘qotganlarim va topganlarim: Xotiralar. Adabiyot o‘ylar. – T.: “Sharq”, 1999. – 304 b.

Ushbu kitob muallifi – O‘zbekiston Xalq yozuvchisi Said Ahmad hozirgi kunda unutilmas xotiralarga aylangan Atoqli adabiyot arboblari bilan uzoq vaqt birga bo‘lgan. Kitobning birinchi bobida tilga olingan va ajib mehr bilan tasvirlangan ustozlar endi yo‘q. Ular xalqqa vatanimiz badiiy xazinasiga qimmatbaho gavxarlar qoldirib yo‘qlik sari ketganlar.



G'ildirak

Said Ahmad. G'ildirak: (qissa, hikoyalar, pesalar, rezgilar).
Qayta nashrga tayorlovchi Xusanxodjayeva Nodira Said
Ahmad qizi. – T.: “Sano - standart” 2019. – 512 b.

Hajviyot O'zbekiston xalq yozuvchisi Said Ahmadning ijodida alohida o'rin tutadi. Sevimli adibimiz satira va yomor tig'ini hayotda mustahkam o'rin topolmagan, engil – elpi kun ko'ruvchi olg'a yurishimizga to'sqinlik qiluvchi ma'naviy qashshoq kimsalarga qaratadi. To'plamda o'rin

olgan qissa “G'ildirak”da muallif mol – dunyoga hirs qo'ygan kishilarning ma'naviy inqirozini achchiq kinoya bilan tasvirlaydi.

Said Ahmad 2007-yilning 5-dekabr kuni 87 yoshida vafot etdi.

Aziz kitobxonlar! Sizlarga tavsiya etayotgan yuqoridagi adabiyotlarimiz Qorovulbozor tuman Axborot – kutubxona markazi javonida o'z kitobxonlarini kutmoqda. Marhamat, kutubxonamizga obuna bo'ling.

Tuzuvchi : Axborot – bibliografiya xizmat rahbari: G.Axmedova

